

ORIENTAL
UNIVERSITETI

AXBOROT XATI

“Zamonaviy ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, vazifalar va yechimlar”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

10-NOYABR
2026-YIL

ANJUMAN O‘TKAZILISHI HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-58-sonli, 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli Farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-sonli Qarorida belgilab berilgan vazifalar ijrosini samarali amalga oshirish maqsadida 2026-yil 10-noyabr kuni “Zamonaviy ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, vazifalar va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

ISHTIROK ETISHGA TAKLIF

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etish uchun oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlar va tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari, vazirlik va tashkilotlar xodimlari, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari rahbar va mutaxassislari taklif etiladi.

ANJUMANNING MAQSADI:

Anjumanning maqsadi zamonaviy ilm-fan va ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni chuqur ilmiy tahlil qilish, inson kapitalini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlarini tadqiq etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va olimlarning ilmiy ishlari natijalarini muhokama qilish asosida ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

ANJUMAN ISHI QUYIDAGI SHO‘BALAR BO‘YICHA TASHKIL QILINADI:

1. **1-sho‘ba.** “Filologiya fanlarining zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari va til, adabiyot hamda tarjima sohalaridagi ilmiy-tadqiqotlarning dolzarb masalalari”;
2. **2-sho‘ba.** “Zamonaviy pedagogik ta’limni rivojlantirishning ilmiy asoslari va boshlang‘ich ta’lim, inklyuziv ta’lim, psixologiya hamda maxsus ta’limdagi innovatsion yondashuvlar;
3. **3-sho‘ba.** “Jismoniy madaniyat va sport ta’limini modernizatsiya qilishning ilmiy-metodologik asoslari hamda insonning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini ta’minlashning zamonaviy yondashuvlari”;
4. **4-sho‘ba.** “Tarix fanining zamonaviy metodologiyasi asosida milliy tarix va madaniy merosni tadqiq etishning dolzarb masalalari hamda tarixiy jarayonlarni ilmiy talqin qilishning yangi yondashuvlari”;
5. **5-sho‘ba.** “Iqtisodiyot va menejment sohalarida innovatsion rivojlanish, inson kapitali va raqamli transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishning zamonaviy ilmiy yondashuvlari”;
6. **6-sho‘ba.** “Matematika va sun’iy intellekt asosida raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarni matematik modellashtirish va intellektual texnologiyalar asosida rivojlantirishning dolzarb masalalari”.

ORIENTAL
UNIVERSITETI

AXBOROT XATI



MAQOLALAR MATNLARINI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI:

1. Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus tillarida qabul qilinadi.
2. Maqolaning umumiy hajmi to‘liq 4-6 bet. Matn formati MS Word dasturida, Times New Roman shriftida, 1,5 interval, 14 kegel (qog‘oz va elektron variantda) shaklida bo‘lishi zarur.
3. Maqola matni tahrir qilingan holda A4 o‘lchovida, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm joy qoldirilib, rasmiylashtiriladi.
4. Maqolaning tepa qismi o‘rtasida maqolaning nomi bosh harflar bilan to‘q shriftda beriladi.
5. Muallifning ismi-sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi va telefon raqami sarlavhadan oldin o‘ng tomonda ko‘rsatilishi lozim.
6. Annotatsiya va kalit so‘zlar maqola tili va ingliz tillarida berilishi lozim. Annotatsiya 100 ta belgi, tayanch so‘zlar 5-10 ta so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.
7. Adabiyotlar ro‘yxati to‘liq holda alifbo tartibida (F.I.Sh., asar nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, betlar) ko‘rsatilishi lozim.
8. Maqola matnidagi ma’lumotlar uchun muallif javobgar va talab darajasida tayyorlanmagan maqolalar qabul qilinmaydi.
9. Bir maqolada ko‘pi bilan uch nafar muallif bo‘lishi mumkin.

ANJUMAN O‘TKAZILISHI VA MATERIALLAR

1. Anjuman oflayn va onlayn (ZOOM dasturi) shaklda olib boriladi. Anjuman materiallari bosma va elektron to‘plam holida nashr etiladi va mualliflarga elektron sertifikat beriladi.
2. Maqolalar 2026-yilning 01-noyabriga qadar qog‘oz va elektron shaklda qabul qilinadi. Anjuman materiallari to‘plamini chop ettirish uchun taqdim etiladigan tezis va maqolalarning har bir beti uchun 30 000 (o‘ttiz ming) so‘m qiymatida to‘lov qilinadi.

MUROJAAT VA MAQOLALARNI YUBORISH

Maqolalarni quyidagi elektron manzilga yuborish tavsiya etiladi:	**safariy85@mail.ru**
Tashkiliy qo‘mita manzili:	**Oriental universitetining “Biznes va boshqaruv”** kafedrasi (Toshkent shahar, Olmazor tumani, “Noraztepa” ko‘chasi, 52-A-uy).
Murojaat uchun telefon raqamlari (telegramm mavjud):	**+998 90 531 78 63** Safarov Alisher. **+998 94 413 89 13** Xaydarov Xayrulla. **+998 99 789 73 38** Kurbanova Shaxnoza.